



ISSN: 2181-9416

3-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOYIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

3-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEP 3

LAWYER HERALD

ISSUE 3



JUMAYEV Shohjahon Begimqul o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi doktoranti
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

DAVLAT ORGANLARIDA MUROJAATLAR BILAN ISHLASH JARAYONIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI ANIQLASH VA MINIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): JUMAYEV SH.B. Davlat organlarida murojaatlar bilan ishlash jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish mexanizmlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 3 (2026) B. 208-215.

 3 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/3-021>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlari, ularni uzaytirish hamda qisqartirish tartibi, murojaatlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalariga doir korrupsiyaviy xavf-xatarlar va ularni bartaraf etish xususida so'z borgan. Murojaatlarni davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqish holati bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Yangilangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ilgari surilgan murojaatlar bilan ishlash borasidagi istiqbolda ko'zda tutilgan vazifalar yoritilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammoli holatlar qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Nazariyotchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va bir qator xorijiy davlatlarning murojaatlarni ko'rib chiqish muddatiga oid tajribasi o'rganilgan, milliy qonunchiligimiz bilan qiyosiy tahlil qilingan hamda takliflar ilgari surilgan. Murojaatlarni ko'rmay qoldirish asoslarini aniq va qat'iy belgilashning afzalliklari, shuningdek, amaliyotda ham turfa xil talqin etishga, turlicha qarashga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan tushunchalarning mazmun-mohiyati esa qonun darajasida aniq belgilanishining joizligi taklif etilgan. "Mening fikrim" veb-portali orqali elektron jamoaviy murojaatlar berish va ularni rad etish tartibiga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: murojaat, ariza, shikoyat, taklif, korrupsiyaviy xavf-xatar, korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash, javobgarlik, murojaatga javoblar, ustuvor yo'nalish, strategiya.

ЖУМАЕВ Шохжахон

Старший преподаватель Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве Юстиции Республики Узбекистан, Докторант Правоохранительной Академии Республики Узбекистан
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

МЕХАНИЗМЫ ВЫЯВЛЕНИЯ И МИНИМИЗАЦИИ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ В ПРОЦЕССЕ РАБОТЫ С ОБРАЩЕНИЯМИ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНАХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются сроки рассмотрения обращений физических и юридических лиц, порядок их продления и сокращения, а также вопросы коррупционных рисков, связанных с ответственностью за нарушение законодательства об обращениях, и пути их устранения. Приводятся официальные статистические данные о рассмотрении обращений государственными органами и организациями. Освещаются перспективные задачи в сфере работы с обращениями, предусмотренные в обновлённой стратегии «Узбекистан – 2030». Проведён сравнительно-правовой анализ отдельных проблемных вопросов, связанных с привлечением к административной и уголовной ответственности за нарушение законодательства об обращениях физических и юридических лиц. Изучены научно-теоретические взгляды учёных-теоретиков, а также опыт ряда зарубежных стран относительно сроков рассмотрения обращений, проведён их сравнительный анализ с национальным законодательством и выдвинуты соответствующие предложения. Предложены преимущества четкого и исчерпывающего определения оснований для оставления обращений без рассмотрения. Также обоснована целесообразность законодательного закрепления содержания и сущности понятий, которые на практике могут вызывать различные толкования и неоднозначные подходы. Кроме того, рассмотрен порядок подачи и отклонения электронных коллективных обращений через веб-портал «Мое мнение» («Mening fikrim»).

Ключевые слова: обращение, заявление, жалоба, предложение, коррупционный риск, оценка коррупционных рисков, ответственность, ответы на обращения, приоритетное направление, стратегия.

SHOKHJAKHON Djumayev

Senior lecturer of Training Institute for lawyers,
Doctoral student of the Law Enforcement Academy of
Republic of Uzbekistan
E-mail: Shohjahon7474@gmail.com

MECHANISMS FOR IDENTIFYING AND MINIMIZING CORRUPTION RISKS IN THE PROCESS OF HANDLING APPEALS IN GOVERNMENT BODIES

ANNOTATION

This article discusses corruption risks related to the time limits for reviewing appeals of individuals and legal entities, the procedure for extending and shortening such time limits, as well as liability for violations of legislation on appeals, and examines ways to eliminate these risks. Official statistical data on the consideration of appeals by state bodies and organizations are presented. The article also highlights

the prospective tasks envisaged in the field of handling appeals under the updated “Uzbekistan – 2030” Strategy. Certain problematic issues related to administrative and criminal liability for violations of legislation on appeals of individuals and legal entities are analyzed through a comparative legal approach. The scientific and theoretical views of legal scholars, as well as the experience of a number of foreign countries regarding the time limits for considering appeals, are examined, comparatively analyzed with national legislation, and relevant proposals are put forward. The advantages of clearly and strictly defining the grounds for leaving appeals without consideration have been proposed. It has also been suggested that the content and essence of concepts that may give rise to various interpretations and differing approaches in practice should be clearly defined at the legislative level. Furthermore, the procedure for submitting and rejecting electronic collective appeals through the “Mening Fikrim” web portal has been examined.

Key words: appeal, application, complaint, proposal, corruption risk, corruption risk assessment, liability, responses to appeals, priority direction, strategy.

Ma'lumki, mamlakatimizda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'tgan davr mobaynida mazkur sohaga oid 10 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, yangi tahrirdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalarini, davlat organlari va tashkilotlarining “Ishonch telefonlari” tashkil etilishi fuqarolarning og'irini yengil qilish bilan bir qatorda, turli xil murojaat qilish bilan bog'liq noqulayliklarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Joriy yil 13-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi darajaga ko'tarish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda mamlakatimizda har o'n ming kishiga o'rtacha 319 ta ariza va shikoyat to'g'ri kelayotganligi, biroq bu ko'rsatkich Toshkent shahrida 535 ta, Navoiy viloyatida 462 ta, Sirdaryo va Surxondaryoda 452 tadan, Jizzaxda 430 ta, Qashqadaryoda 368 ta, Toshkent viloyatida 350 tani tashkil qilayotganligi ta'kidlandi [1].

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasining 82-bandida “murojaatlarning kamida 80 foizi mahalliy darajada qanoatlantirilishini (shu jumladan, murojaat natijasida mavjud muammolarni aniqlash va ularning qonuniy yechimini topish) ta'minlash lozimligi” ustuvor vazifa sifatida belgilandi [2].

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar hamda belgilangan ustuvor vazifalar murojaatlar bilan ishlash masalasi qanchalar dolzarb ekanligini va borada qonunchilik doimiy ravishda takomillashtirilib borilishi joizligini ko'rsatadi.

Shuningdek, murojaat qilishga doir bir qancha nazariyotchi olimlarning fikrlarini keltirib o'tishimiz joiz sanaladi. Jumladan, *A.A.Drakov* va *A.P.Lyubimovaning* fikricha, murojaat qilish huquqi – bu fuqaro (chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs) ning og'zaki yoki yozma ravishda taklif, ariza, iltimosnoma, shuningdek, shikoyat bilan ushbu masalalarni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlarga murojaat qilish huquqi hisoblanadi [3]. Mazkur ta'rifda murojaat qilish huquqining maqsadi va xususiyatlari to'liq ochib berilmagan deb hisoblaymiz. Qolaversa, ushbu ta'rifda murojaatning shakli sifatida elektron murojaat keltirib o'tilmagan. E'tiborli jihati shundaki, ta'rifda iltimosnoma murojaatning alohida turi sifatida keltirilgan. Vaholanki, bir qancha davlatlar qonunchiligi bo'yicha, jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonuniga asosan iltimosnoma murojaatning alohida turi sifatida qayd

etilgan, balki murojaatning turi hisoblangan arizaning bir elementi sifatida keltirib o‘tilgan.

Y.Xrumalova va M.Mixaylovskiyning qayd etishicha esa, murojaatlar davlat uchun jamiyatning ehtiyoji va zaruratiga o‘z vaqtida hamda sifatli ta’sir ko‘rsatish maqsadida muhim axborot manbai, shaxs erkinligi va manfaatlarini qanoatlantirish uchun aholi bilan samarali aloqa vositasi hisoblanadi [4].

Mazkur maqolada murojaatlar bilan ishlash borasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlil qilinar ekan, avvalo korrupsiyaviy xavf-xatar o‘zi nima ekanligi va unga qonunchilik darajasida qanday ta’rif berilganligiga to‘xtalib o‘tamiz. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash” Uslubiyotining 3-bandiga ko‘ra, korrupsiyaviy xavf-xatar bu shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda *korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli* sanaladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash esa davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo‘yicha faoliyat hisoblanadi [5].

Endi esa murojaatlar bilan ishlash sohasidagi ayrim korrupsiyaviy xavf-xatarlar hamda uni bartaraf etish yo‘llari va murojaatlarga doir qonunchilikdagi turli sharhlashga sabab bo‘ladigan holatlarga to‘xtalib o‘tamiz.

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrda qabul qilingan “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-sonli Qonuni 28-moddasiga muvofiq, ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo‘lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e’tiboran *o‘n besh kun ichida*, qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa, *bir oygacha* bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi [6].

Ya’ni mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismida ariza yoki shikoyat qancha muddatda ko‘rib chiqilishi, muddatni uzaytirish masalasi belgilab berilgan. Ammo mazkur moddaning uchinchi qismiga ko‘ra, taklif davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi, qo‘shimcha o‘rganishni talab etadigan takliflar esa bundan mustasno ekanligi qayd etilgan. Modda mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, ariza va shikoyatni ko‘rib chiqish muddati hamda bu muddatni uzaytirish masalasi qat’iy belgilangan, ammo qo‘shimcha o‘rganishni talab qiladigan takliflar qancha muddatda ko‘rib chiqilishi lozim ekanligi aniq belgilab berilmagan. Bu holat esa, mazkur huquqiy normani turli xil sharhlanishiga hamda ko‘rib chiqishda har xil amaliyot yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati haqida so‘z borar ekan, xorij tajribasiga ham to‘xtalib o‘tishimiz lozim, deb o‘ylaymiz. Misol uchun, *AQShning Texas shtati* qonunchiligiga ko‘ra, fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish muddati 10 ish kuni etib belgilangan [7].

Angliya hukumati sayti ma’lumotlariga ko‘ra, murojaatlar 20 ish kunida ko‘rib chiqilishi lozim. Qo‘shimcha o‘rganishlarni talab etsa, muddat 12 haftagacha uzaytirilishi mumkin [8]. Shuningdek, Angliya Ombudsmani shikoyatlarni 8 haftagacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqadi [9].

Rossiya Federatsiyasining 2006-yil 2-maydagi 59-FZ sonli “Murojaatlar to‘g‘risida”gi Qonuni 12-moddasiga muvofiq, murojaatlar 30 kunlik muddatda ko‘rib chiqiladi. Tegishli asoslar bo‘lgan taqdirda tashkilot rahbari tomonidan yana 30 kungacha bo‘lgan muddatga uzaytirilishi mumkin [10].

Yuqoridagi xorijiy tajribalar sifatida keltirilgan normalar mazmunidan ko‘rinib turibdiki, ularda

bir qator milliy qonunchiligimizdan farqli jihatlar mavjud bo'lib, bu Texas shtatida muddatlar "ish kunlari" bilan hisoblanishida, Angliyada uzaytirilgan muddat ancha ko'pligida, Rossiya Federatsiyasida esa, qo'shimcha o'rganishni talab etmaydigan murojaatlar bo'yicha qisqaroq, ya'ni 15 kunlik muddatning belgilanmaganida yaqqol ko'rinadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni 27-moddasi beshinchi qismidagi "Murojaatlarga javoblar mumkin qadar murojaat etilgan tilda bayon qilinadi", degan jumla "Murojaatlarga javoblar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda murojaat etilgan tilda bayon qilinadi" tarzida o'zgartirilishi taklif qilinadi. Chunki ushbu normadagi "mumkin qadar" degan jumla aniq qaysi tilda murojaatga javob berilishi lozimligini qat'iy belgilamaydi. Ushbu taklif amaliyotda murojaat etilgan tilda javob berishdan qochish hamda mazkur huquqiy normani turlicha talqin etishning oldini oladi. Bundan tashqari, hozirgi raqamli makonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida bir tildan boshqa tilga murojaat matnini tarjima qilish ancha tez va sifatli amalga oshirilishi imkoniyati katta. Qolaversa, mazkur normada "mumkin qadar" jumlasining bo'lishi agarda murojaat qiluvchi murojaatni ko'rib chiquvchi davlat organi mansabdor shaxsiga yaqin tanish bo'lsagina yoki murojaat qiluvchi tegishli davlat organiga ma'lum moddiy manfaat ko'rsatsagina murojaatga javob xatlari murojaat etilgan tilda berilishini, ya'ni korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimolining yuzaga kelishini inkor etmaydi. Yuqoridagi tahrirda taklif etgan huquqiy normamiz esa korrupsiyaviy xavf-xatarni oldini oladi va ma'lum darajada bartaraf etadi, deb hisoblaymiz.

Shu kabi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi 341-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risida"gi Namunaviy nizomning 41-bandida "*Ayrim hollarda davlat organi, tashkilotining rahbari yoki uning o'rinbosari murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirishlari mumkin*", deb qayd etilgan[11]. Ushbu huquqiy normadagi "*ayrim hollar*"ga aynan qaysi holatlar kirishi mumkinligi qonunchilikda aniq belgilab qo'yilishi lozim, deb hisoblaymiz. Aks holda bu korrupsiyaviy xavf-xatarni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirishning aniq va qat'iy huquqiy asoslari belgilanmasa, davlat organining mansabdor shaxsi faqat o'z yaqin qarindoshlarining murojaatlariga nisbatan muddatni qisqartirib berishi yoki kimdir uni moddiy manfaatdor qilgandagina muddatni qisqartirib berishi mumkin bo'lib qoladi.

Shuningdek, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning 29-moddasida murojaatlarni ko'rmay qoldirishning quyidagi asoslari keltirib o'tilgan:

anonim murojaat bo'lsa;

jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda;

mazkur Qonunda belgilangan boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar.

Murojaat qilish huquqi har bir shaxsning konstitutsiya darajasida muhofaza etilgan huquqi bo'lganligi hamda murojaatni ko'rmay qoldirish asosi qat'iy bo'lmagan taqdirda shaxsning murojaat qilish huquqi muayyan muddatga bo'lsada cheklanishi mumkinligi sababli murojaatlarni ko'rmay qoldirish asoslari barcha uchun tushunarli va qat'iy belgilanishi lozim, deb hisoblaymiz. Shu bois Qonunda "boshqa talablarga muvofiq bo'lmagan murojaatlar" deganda qanday talablar nazarda tutilayotganligi qayd etib o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 12-fevralda qabul qilingan 463-V-sonli Qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "Mening fikrim" veb-portali orqali elektron jamoaviy murojaatlar berish va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 11-bandiga asosan quyidagilar murojaat predmeti bo'la olmaydi:

O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini o'zgartirish to'g'risidagi;
O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va soliqlar haqidagi;
amnistiya va afv etish to'g'risidagi;
amaldagi konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilish haqidagi;
jamiyatning ma'naviy qadriyatlariga putur yetkazadigan, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini poymol qiladigan;
urush, zo'ravonlik, shafqatsizlikni targ'ib qilish, millatlararo, irqiy, diniy adovat, ekstremizm, separatizm va fundamentalizmni qo'zg'atish to'g'risidagi;
terrorchilik harakatlarini sodir etishga, qonunga muvofiq jinoiy va o'zga javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa xatti-harakatlarni sodir etishga da'vat qilish haqidagi;
giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va ularning analoglarini, shuningdek prekursorlarni targ'ib qilish to'g'risidagi va boshqa masalalar.

Demak, elektron jamoaviy murojaatlarda mazkur masalalarning qayd etilmasligi lozimligini ham murojaatlarga qo'yilgan talab deyish mumkin hamda bu talabga amal qilmaslik esa elektron jamoaviy murojaatning ko'rib chiqilmasligiga olib keladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, basharti jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun huquqbuzarlik natijasida fuqarolarning, jamiyat va davlatning huquqlariga yoxud qonun tomonidan muhofaza qilinayotgan manfaatlariga *jiddiy ziyon* yetkaziladigan bo'lsa, mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 144-moddasi birinchi qismi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Mazkur modda bilan bog'liq bo'lgan, amaliyotda ham turfa xil talqin etishga, turlicha qarashga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan tushuncha aynan "jiddiy ziyon" tushunchasidir. Jinoyat kodeksining ushbu moddasi birinchi qismi bo'yicha javobgarlikka tortish asoslaridan eng zaruriysi aynan jiddiy ziyonning kelib chiqishidir. Ammo amaldagi Jinoyat kodeksining "Atamalarning huquqiy ma'nosi" nomli sakkizinchi bo'limida "jiddiy ziyon" deganda aynan nima tushunilishi lozim ekanligi qat'iy keltirib o'tilmagan. Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 4-moddasiga asosan, sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari *faqat Jinoyat kodeksi bilan* belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi asos faqat Jinoyat kodeksida aks etishi lozim.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim. *Qonun qo'llanilayotganda kelib chiqadigan shubhalar* ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak. Demakki, qonunchilikda aks etgan hamda turlicha talqin etishga asos bo'ladigan holatlar ham jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan, ayblanayotgan shaxsning foydasiga xizmat qilishi joiz.

Shu bilan bir qatorda, davlat organlarining murojaatlar bilan ishlash jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish yo'llari sifatida yana quyidagilarni keltirib o'tamiz. Birinchidan, **murojaatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish** zarur. Elektron murojaatlar tizimi orqali murojaatlarning qabul qilingan vaqti, ijrochisi, bajarilish muddati hamda ko'rib chiqish natijalari avtomatik qayd etilishi inson omilining ta'sirini kamaytiradi.

Ikkinchidan, **murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va mezonlarini aniq belgilash** lozim. Murojaatlarni qaysi hollarda ko'rib chiqish, qaytarish, boshqa organga yuborish yoki ko'rmasdan qoldirish mumkinligi qonunchilikda batafsil va tushunarli ifodalansa, mansabdor shaxslarning diskretion vakolatlari ma'lum darajada cheklanadi.

Uchinchidan, **murojaatlar harakatini monitoring qilishning shaffof mexanizmlarini joriy etish** muhimdir. Murojaatchiga o'z murojaatining qaysi bosqichda ekanligini onlayn

kuzatish imkoniyatining yaratilishi mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Shaffoflik darajasi ortgani sari korrupsion harakatlarni yashirish imkoniyati kamayadi.

To'rtinchidan, **ichki nazorat va xizmat tekshiruvlari tizimini takomillashtirish** talab etiladi. Murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari, qonuniyligi va sifati muntazam ravishda tekshirib borilishi, aniqlangan qonunbuzilishlar bo'yicha muqarrar choralar ko'rilishi korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yuqori korrupsiyaviy xavfga ega bo'lgan yo'nalishlarda riskga asoslangan nazorat mexanizmlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Beshinchidan, **manfaatlar to'qnashuvini oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish** lozim. Agar murojaatni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxs murojaat natijasidan shaxsan manfaatdor bo'lsa yoki murojaat qiluvchi bilan yaqin aloqalarga ega bo'lsa, bunday holat majburiy ravishda deklaratsiya qilinishi va ish boshqa xodimga topshirilishi kerak. Bu xolislik va adolatlilikni ta'minlaydi.

Oltinchidan, **murojaatlar bilan ishlash bo'yicha xodimlarning kasbiy malakasi va korrupsiyaga qarshi madaniyatini oshirish** muhim ahamiyatga ega. Xodimlarning qonunchilik, xizmat etikasi va korrupsiyaga qarshi kurashish standartlari bo'yicha muntazam o'qitilishi ularning huquqiy ongini mustahkamlaydi hamda noqonuniy harakatlarga moyillikni kamaytiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan bog'liq faoliyat muayyan davlatning aholi muammolari bilan ishlash darajasini, davlat organlari va tashkilotlari o'z zimmasidagi funksiyalarni qanchalar aniq va to'liq bajarayotganini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar qay darajada samara berayotganini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos indikatoridir. Shu bois, mazkur sohaga doir qonunchilik doimiy ravishda tahliliy ravishda o'rganilishi, ilg'or xorij tajribasi asosida takomillashtirilishi hamda undagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar minimallashtirilib borilishi lozim.

IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligidagi 2026-yil 13-mart kuni aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishidan // URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9010>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-sonli "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>.

3. Любимова А.П. Гражданский лоббизм: процедуры и технологии обращения граждан. – М., 1998.; Дворак А.А. Реализация конституционного права граждан на обращения в Российской Федерации: Дисс... канд. юрид. наук. – М., 2004.

4. Хрумалова Ю.В. Право граждан на обращение в органы государственной власти как форма обратной связи между населением и государственным аппаратом. // Гражданское общество в эпоху глобальной информатизации: докл. и матер. III Международной молодежн. науч. конф. – М., 2011. – С. 284.

5. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash" Uslubiyoti // <https://lex.uz/docs/-6178891>.

6. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrda qabul qilingan "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-sonli Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-3336169>.

7. Complaints overview // URL: <https://www.texasattorneygeneral.gov/opengovernment/governmental-bodies/complaints-overview>.

8. Complaints and appeals: detailed information // URL: <https://www.gov.uk/topic/dealing-with-hmrc/complaints-appeals>.

9. Complaining to an ombudsman // URL: <https://www.citizensadvice.org.uk/consumer/get-more-help/how-to-use-an-ombudsman-in-england/>.

10. On the procedure for consideration of appeals by citizens of the Russian Federation // URL: https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/rus_e/wtaccrus48a8_leg_3.pdf.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagi "Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 341-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-3730228>.

YURIST AXBOROTNOMASI

3-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 3

LAWYER HERALD

ISSUE 3

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/3

2026-YIL